

“Tashabbuskor, do’st, hamfikrmiz, dugonajon” shiori bilan



12.10.2022

“Tashabbuskor, do’st, hamfikrmiz, dugonajon” shiori bilan

Kuni kecha universitetimizda “Xalqaro qizlar kuni” munosabati bilan “Tashabbuskor, do’st, hamfikrmiz, dugonajon” shiori ostida ijodiy kecha o’tkazildi. Unda Universitet, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi Z.Karabaeva, xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchilari, "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, “Olima ayollar” klubi a’zolari, fakultetlat tyutorlar hamda talaba-qizlari ishtirok etishdi. “Xalqaro qizlar kuni” munosabati bilan o'tkazilgan tadbir 2 qism doirasida tashkil etildi. Tadbirning birinchi qismida bilimga chanqoq qizlarimiz o'zlarini innovatsion g'oyalari asosida taqdimotlarini namoyish qilishdi. Tadbirni ikkinchi qismida esa faol ijodkor qizlarimiz tomonidan tayyorlagan ajoyib badiiy qism egalladi. Avvalida qizlarni madh etuvchi, ularning ijtimoiy faolligini oshiruvchi ijtimoiy rolik namoyish etildi.



Tadbirda so'zga chiqqan Universitet xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi Z.Karabaeva talaba-qizlar, ayollar masalasi, ularning salomatligini yaxshilash, ta'lim olishiga shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy muammolarini hal etishga ko'maklashish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani quvonarli hol ekanligini va bu borada talaba-qizlarning faolligi ham muhim bosqich ekanligi haqida turli hayotiy misollar bilan so'z yuritdi. Qolaversa, “Olima ayollar” klubining qizlar o'rtasida o'zaro do'stlik, hamfikrlik, bir-biriga daxldorlik munosabatlarini shakllantirishdagi o'rni haqida ma'lumotlar berildi. Eng muhimi, ishtirokchi qizlar farovon jamiyatni qurishda yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir qizlar juda kerakli ekanligini yana bir bor teran anglashdi. Ushbu tadbir talaba-qizlarning qiziqishlarini yanada rag'batlantirish, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tengdoshlari o'rtasida hamkorlik va tashabbuskorlik muhitini yaratish borasida ahamiyatli bo'ldi.

"Yer resurslarini boshqarish" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova axboroti